

TURIZM FAOLIYATINI XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Saynazarova Muxtasar Ravshanbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq 4-bosqich talabasi

muxtasarsaynazarova@gmail.com

muxtasar.saynazarova@tsul.uz

mail.tsul.uz:3000

Annotatsiya: *Xalqaro turizm sohasidagi huquqiy tartibni saqlash uchun mamlakatlarning o'zaro hamkorlik qilishlari, xalqaro aniq qoidalar va kelishuvlar bilan amalga oshiriladi. Bu, davlatlararo shartnoma va shartlar, vizalar, huquqiy himoya, sertifikatlar va boshqa turizm sohasini tartibga solishga oid huquqiy asoslar umumlashtirilgan tizimini o'z ichiga oladi. Tuzim sohasini xalqaro huquqiy tartibga solishda asosiy norma mavjud emas. Ammo Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti turizm sohasini rivojlanishida va uni tartibga solishda muhim ro'l o'ynaydi.*

KIRISH

Hozirgi kunda turizm sohasi eng rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasi, insonlar va ularning madaniyati, tabiiy resurslari, tarixiy va madaniy merosi, yoshlar va yangi kasblarni ko'rish uchun boshqa joylarga safar qilishlari, joylashishlari, va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq moliyaviy, ijtimoiy, va madaniy faoliyatlar birligi hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Turizm sohasi haqida so'z boshlashdan oldin hammaga tushunarli bo'lishi uchun turizm so'ziga ta'rif berib o'tamiz. Turizm (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safari) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Turizm sohasi nafaqat Xorijiy davlatlarda balki O'zbekistonda ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga misol qilib 1992-yil 27-iyuldanoq O'zbekistonda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyat yuritib O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlik qilayotganligini aytishimiz mumkin. Ushbu kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat. Odatda turizm, turizm tashkilotlari orqali turizm mashrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Uning tarixi esa XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiya uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy

turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

Yuqoridagilarga asoslanib turizmning juda ko'p shakllari va turlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar. Odamlar bemalol o'zlariga qulay bo'lgan shaklda, o'zlari xohlagan mamlakatga sayohat uyishtirishlari mumkin. Turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohalarini mujassam etganki, bu butun jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Aloxida mamlakatlar xo'jaligiga ham, xududlarga ham u birday tegishli. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab –quvvatlanib turiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki turizm foydalanuvchilari atrof-muhitni ifloslanishiga va turizm obyektlarining dekratatsiyasiga olib kelishi ham mumkin. Agar sayyohlar nojo'ya harakatlar qilishsa atrofdagi aholining turistlarga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi. Bu esa o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday holat yuzaga kelmasligi uchun har bir davlat soha bo'yicha o'zining qonunchiligiga ega bo'lishi kerak. Turizm sohasi bo'yicha Yevropaga yuzlanadigan bo'lsak, u yerda ham turizm sohasi bo'yicha qonunchiliklar mavjud bo'lib, Yevropada turizm bilan bog'liq har qanday faoliyatni boshlashdan oldin hisobga olinishi kerak bo'lgan boshqa qoidalar soliq va madaniy merosni muhofaza qilish masalalari bilan ham bog'liq hisoblanar ekan. Turistik agentligi ochish uchun turizm industriyasi nafaqat turizmning maxsus qoidalariga, balki birinchi navbatda boshqa sohalarga, masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va madaniy va tarixiy merosni saqlashga qaratilgan qoidalar bo'ysunadi. Shu sababli, agentlik ochish niyatida bo'lganlar nafaqat turizm sohasiga ta'sir qiluvchi qonunlar, balki faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa umumiy qonunchilik choralari haqida ham bilishlari kerak. Turizmni tartibga solish har doim iste'molchini himoya qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Evropa Ittifoqi sayyohlar muammolarga duch kelganda himoyasiz qolmasligini ta'minlash uchun maxsus qonunlarga ega. Agar bizda sayohat agentligi yoki har qanday vositachi agelik bo'lsa yevropadagi ushbu tartibga solish bizda katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Iste'molchilar foydasiga Evropa siyosati Evropa Ittifoqining faoliyati to'g'risidagi shartnomaning 169-moddasida ko'rsatilganidek, iste'molchilarning salomatligi, xavfsizligi va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu siyosat iste'molchilarning axborot va ta'lim olish huquqlarini, o'z manfaatlarini himoya qilish huquqini qo'llab-quvvatlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra xalqaro turizm dastlab 1980-yillarda Manila Deklaratsiyasi tomonidan tartibga solingan. Keyinchalik esa sayyohlar soni ortib borgani sayin qonunlarga rioya qilish murakkablashib borgan. Va buning natijasida yangi qonunlarga ehtiyoj sezila boshlagan. Turistik sohasidagi qonunlar barcha qonunlardan olib

tuzilgan. Turizmni tartibga soladigan va rivojlantirishga qaratilgan bir necha umumiy qonunlar mavjud. Jumladan:

1) Transchegaraviy harakat va turistlarni himoya qilish bilan bog'liq qonunlar, shu jumladan passport, bojxona, viza qoidalari, valyuta qoidalari, immigratsiya qonunlari va boshqalar.

2) Aviatsiya qoidalari, temir yo'llar, avtomobil va suv kabi transport bilan bog'liq qonunlar, transport va boshqalar.

3) Oziq-ovqat, turar joy, mehmonlar va mezbonlarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq mehmondo'stlik qonunlari, o'yin-kulgi, tasniflash, baholash, mehmonxonalar reytingi va boshqalar.

4) Sog'liqni saqlash, gigiena, xizmatlar sifati standartlari va boshqalar bilan bog'liq iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar.

5) Shartnomalar, sheriklik, tovarlarni sotish bilan bog'liq sanoat qonunlari va tegishli qonunlar, yerdan foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va boshqalar.

6) Inson resurslarini rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar va xodimlar bilan bog'liq mehnat qonunlari, mehnat sharoitlari, ish haqi va boshqalar.

7) Turistik tashkilotlarning turli darajadagi faoliyatiga oid qonunlar.

8) Atrof-muhitni muhofaza qilish, merosni asrash to'g'risidagi qonunlar, qadimiy yodgorliklar, tarixiy obidalar va boshqalar.

9) Turizmni barqaror rivojlantirishga oid qonunlar

10) Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar va xizmatlar sifatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqalar.

Biz yuqorida turizm sohasini tartibga soluvchi umumiy qonunlarni keltirib o'tdik. Turizm sohasini xalqaro huquqiy tartibga solish bo'yicha butun jahonda yirik bir tashkilot xizmat ko'rsatadi. Ushbu tashkilot Butun Jahon turizm tashkiloti hisoblanadi. Butun Jahon turizm tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining qo'shimcha organi bo'lib, uning asosiy vazifasi ma'suliyatli hisoblanib, barqaror va hamma uchun ochiq tizimni targ'ib qiluvchi agentlikdir. Bu tashkilot turizmni umumjahon miqyosida keng targ'ib qilish, uning xalqaro darajada huquqiy asoslarini tashkil etuvchi hujjatlar qabul qilish va davlatlararo ushbu qonun-qoidalarga rioya qilinishini monitoring qilish kabi vazifalardan tashkil topgan. Yana bu kabi xalqaro normalar sirasiga yuqorida keltirib o'tganimiz Manila Jahon turizmi to'g'risidagi deklaratsiyani (1980), Gaga turizm to'g'risidagi deklaratsiyani (1989), Turistlarni himoya qilish xalqaro kodeksini, Xalqaro eko-turizmni keng miqyosda targ'ib qilish to'g'risidagi konvensiya va shu kabi ko'plab normalarni sanashimiz mumkin. Soha rivojlanib o'sib borar ekan tabiiyki uni tartibga soluvchi normalar ham shakllanib boraveradi. O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish uni tartibga solish maqsadida qonun hujjatlari qabul qilinib, yangiliklar kiritilib borilmoqda. Jumladan, turizm sohasini tartibga soluvchi asosiy qonunlardan biri bu "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanib u 2019-yilda qabul qilingan. Bundan tashqari "O'zbekiston Respublikasida

turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni , "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, xalqaro turizmni rivojlantirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori kabi hujjatlarni misol qilib keltira olamiz.

Turizm sohasi Qo'shma shtatlarda ham eng rivojlangan soha hisoblanib, har yili millionlab xalqaro va mahalliy sayyohlarga xizmat ko'rsatadigan yirik sanoatdir. Chet elliklar AQShga tabiiy mo'jizalar, shaharlar, tarixiy diqqatga sazovor joylar va ko'ngilochar joylarni ko'rish uchun tashrif buyurishadi. Amerikaliklar shunga o'xshash diqqatga sazovor joylarni, shuningdek, dam olish joylarini qidiradilar. Barchamizga ma'lumki, 2019-yildagi pandemiya sababli barcha davlatlar turxi xil talofotlar ko'rdilar. Pandemiya turizm sohasiga ham o'zining katta ta'sirini o'tkazdi. Turizm sohasidan ko'p daromad oluvchi davlatlar iqtisodiy inqirozni boshlaridan o'tkazdi. O'zlarini tiklab olishlari uchun ancha vaqt kerak bo'ldi. Masalan Germaniya va AQSH ham mana shunday talofot ko'rgan davlatlar qatorida. Shunga qaramay ushbu davlatlar hozirgi kunda turizm sohasi rivojlangan va sayyohlar ko'p tashrif buyuruvchi davlat hisoblanadilar. Har bir sohaning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham bor. Yana turizm sohasining qanday ta'sirlari borligini o'rganib chiqamiz. Turizm turistik yo'nalishlarga iqtisodiy , siyosiy , ijtimoiy-madaniy, ekologik va psixologik jihatlarni o'z ichiga oluvchi ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi . Turizmning iqtisodiy ta'siri soliq tushumlarining yaxshilanishi , shaxsiy daromadning o'sishi, turmush darajasini oshirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishni o'z ichiga oladi . Ijtimoiy-madaniy ta'sirlar turli xil madaniy kelib chiqishi, munosabati va xulq-atvori va moddiy ne'matlarga bo'lgan munosabatlariga ega bo'lgan odamlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq . Turizm hukumat siyosatiga ta'sir ko'rsatish va mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni rivojlantirish orqali ham muhim siyosiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Atrof-muhitga ta'sirlar to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlar, jumladan, atrof-muhitga yetkazilgan zarar, yovvoyi tabiatning nobud bo'lishi, o'rmonlarning kesilishi, suvning ifloslanishi va bilvosita ta'sirlar, masalan, oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun tabiiy resurslarni yig'ib olishning ko'payishi, havo va suvning bilvosita ifloslanishi (jumladan, parvozlar, transport va boshqalar) kabi tasniflanishi mumkin. Turistlar uchun oziq-ovqat va suvenirlar ishlab chiqarish). Turizmning mahalliy aholi salomatligi uchun ham ijobiy va salbiy oqibatlar bor . Turizmning aholi salomatligiga qisqa muddatli salbiy ta'siri turistlar kelishining zichligi, kasallikning yuqish xavfi, yo'l-transport hodisalari, jinoyatchilik darajasining oshishi, shuningdek, tirbandlik, olomon va boshqa stressli omillar bilan bog'liq. Bundan tashqari, rezidentlar o'lim darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi, infeksiyalangan sayyohlar bilan aloqa qilish va boshqalar haqidagi xavf tushunchalari bilan bog'liq tashvish va depressiyani boshdan kechirishi mumkin, bu esa

salbiy ruhiy salomatlik natijalariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, turizmning aholi salomatligi va farovonligiga ijobiy uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asosan shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turizm sohasini xalqaro huquqiy tartibga solish uchun alohida norma mavjud emas. Turizm sohasiga oid barcha normalar odatda umumiy hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro turizm sohasidagi huquqiy tartibni saqlash uchun mamlakatlarning o'zaro hamkorlik qilishlari, xalqaro aniq qoidalar va kelishuvlar bilan amalga oshiriladi. Bu davlatlararo shartnoma va shartlar, vizalar, huquqiy himoya, sertifikatlar va boshqa turizm sohasini tartibga solishga oid huquqiy tizimni o'z ichiga olishi mumkin. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki xalqaro turizmni huquqiy tartibga solish, uni rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti muhim ro'l o'ynar ekan. Turizm sohasida aniq norma bo'lmasada soha umumiy qonunlar asosida tartibga solinib keladi. Sohani xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish doimiy muammo sanalsada biroq, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikdagi say-harakatlar xalqaro turizmni tartibga solish uchun yanada yaxlit va standartlashtirilgan huquqiy bazani yaratishga qaratilgan deyishimiz mumkin. Turizm faoliyatini saqlab qolish uchun mamlakatlararo qonunlar va huquqiy jarayonlar turizm infratuzilmasi, madaniyat va tabiat ob'ektlarini himoya qilish, yashash joylari va transport tarmoqlari bo'yicha e'tiborli chora-tadbirlarni ko'rish kerak. Xalqaro turizmni huquqiy tartibga solishda, mamlakatlararo birgalikda kelishilgan tartib va qoida-standartlarga amal qilish kerak. Bu esa turizm sohasidagi rivojlanish va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratishga olib keladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>
2. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/5-y-Xalqaro-turizm.-Darslik.Mamatqulov-X.M-va-bosh.-S-2008.pdf>
3. https://single-market-economy.ec.europa.eu/sectors/tourism/eu-funding-and-businesses/business-portal/understanding-legislation/regulation-tourism-activity-europe_en
4. <https://egyankosh.ac.in/bitstream/123456789/79519/1/Unit-5.pdf>
5. <https://lex.uz/docs/-5346573>
6. <https://lex.uz/docs/-4428097>
7. <https://uzbekistan.travel/uz/turizm-qonunlari>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Tourism_in_the_United_States
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/Tourism>